

MUVAFFAQIYATGA ERISHISHDA KREATIV FIKRLARNING AHAMIYATI

Ro‘zimurod Po‘latov*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*polatovrozimurod6@gmail.com

Annotatsiya: *Kreativ fikrlash, biron bir ishga kreativ yondashish bugungi kunda jamiyat hayotining va ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida eng ko‘p e‘tibor qaratilayotgan va o‘rganilayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan, ayniqsa, olimlar tomonidan sun‘iy intellektning yaratilishi va hayotimizga jadal sur‘atlar bilan kirib kelayotgan yoxud kelgusida kundalik hayotimizda sun‘iy intellektning asosiy o‘rin tutush ehtimoli yuksak bo‘lgan bir sharoitda kreativlik har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar. *Muvaffaqiyat, fikr, kreativ shaxs, ijtimoiy kreativlik, jamiyat, ijodkorlik, maqsad, bilim, inson, yoshlar.*

Kreativ fikrlash o‘zi nima? Bugungi kunda jamiyatda kreativ fikrlashning o‘rni qanday? Kreativlik xususiyatlari shaxsda qanday namoyon bo‘ladi? Mazkur masalaga yondashishda chet el tajribasiga ko‘proq tayanish zarur, chunki ushbu masala chet ellik olimlar tomonidan keng va batafsil o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, amerikalik psixologlar Hennesey va Amabilelarning ta’kidlashicha, Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san’at va gumanitar fanlar kabi turli sohalarida insoniyat tamaddunini ilgari surgan.

Yevropaning Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining bayonotiga ko‘ra kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba’zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko‘nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqdalar. Kreativ fikrlash ta’siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya’ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

Amerikalik olim D. Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi ” - deb ta’rif beradi.

PISA (o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi) tadqiqotida kreativ fikrlash bilim sohasida original va samarali yechimlar, yutuqlar va tasavvurlarni ta’sirchan ko‘rinishlarga olib keladigan g‘oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyati deb ta’riflangan. Kreativlik

tushunchasining lugʻaviy maʼnosi ingliz tilida “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor maʼnolarini anglatadi. Jamiyat hayotining qaysi sohasida qoʻllanilishiga qarab turli soha vakillari tomonidan turlicha taʼriflar berilganligini koʻrishimiz mumkin. Masalan, pedagogik nuqtai nazardan yondashganda, kreativlik pedagogning yangi gʻoyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati maʼnosini ifodalaydi. Psixologik nuqtai nazardan yondashganda, kreativlik inson shaxsining ijodkorlikka boʻlgan qobiliyati, ijodkorlik isteʼdod darajasi, individning anʼanaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq boʻlgan, prinsipial yangi gʻoyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni oʻzgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir.

Umuman olganda, bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativ shaxs esa, oʻzining fikrlashi, dunyoqarashi, doimo yangiliklarga intilishi, oʻz ustida tinimsiz ishlashi, muammoga boshqa shaxslarga qaraganda noodatiy tarzda yechim topa olishi va original qarashlarni bildira olishi, qiziqarli suhbatdosh boʻlish va boshqa xususiyatlarni oʻzida aks ettirmogʻi lozim. Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi gʻoyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qoʻllash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim oʻrin tutadi.

A.Maslou ham kreativlikni – barchaga xos tugʻma ijodiy yoʻnalish, atrof muhitning taʼsirida koʻpchilikda yoʻqolib ketuvchi faoliyat deb hisoblagan. Amerikalik psixolog olim Djo Pol Gilford oʻzining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divergent turiga ajratdi. Konvergent tafakkur - (lotincha convergere– “bir yoʻldan”) tafakkur formasi boʻlib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona toʻgʻrisini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi.

Divergent tafakkur – (lotincha divergere – “boʻlinish”) ijodiy tafakkur metodlaridan biri boʻlib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur “bir vaqtning oʻzida turli yoʻnalishlarga izlanish, yaʼni bir muammoga bir nechta toʻgʻri javoblar borligini va original ijodiy gʻoyalarning tugʻilishiga xizmat qiladi.

Divergent tafakkurning negizini esa kreativlik tashkil etadi. Kreativlik tafakkurning qay darajada shakllanganiga ham bogʻliq boʻlib, shaxs tafakkuri qanchalik yaxshi rivojlangan boʻlsa, kreativ fikrlashi ham shunchalik rivojlangan boʻladi. Biroq kreativlik faqatgina tafakkurning yuqori darajada rivojlanganligi bilan hosil boʻlib qolavermaydi, yaʼni intellektual salohiyati yuqori shaxs har doim ham kreativ fikrlay olmasligi mumkin. Buni Djo Gilford tadqiqotlarida ham koʻrishimiz mumkin. Gilford oʻz kreativlik strukturasi divergent tafakkurdan tashqari oʻzgaruvchanlik qobiliyati,

yechimning aniqligi va boshqa intellektual parametrlarni birlashtirdi. Shuningek, u kreativlik va intellekt o'rtasida o'zaro uzviy aloqa borligini isbotladi. Biroq, Gilford o'z tajribalarida yuqori intellektuallilarning test yechish davomida ijodkorlik xulqini har doim ham ko'rsatmasligini, kreativ past intellektualli bo'lmasligini aniqladi. Shunday ekan, divergent tafakkur kreativ jarayonning barcha xususiyatlarini aks ettirmaydi.

E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi: - muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; - farazni tekshirish va o'zgartirish; - qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; - muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning - o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. Umuman olganda, kreativlik – bu yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir. Kreativ tafakkur esa revolyutsion tafakkur bo'lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi. Kreativ fikrlashda ta'lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlash bugungi kunda yoshlar egallashi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir.

Mazkur ko'nikma, yoshlarga bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan, zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan faol foydalana oladigan, oddiy savodxonlikdan ko'ra ko'proq natija ya'ni tashabbuskorlik talab qilinayotgan, bir so'z bilan aytganda XXI asr ko'nikmalariga ega malakali kadrlarga talab kuchayayotgan bir paytda ushbu jarayonga moslashishiga va raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat qaratish lozim. Birinchidan, shaxs tarbiyasida bolalikdanoq uning fikri muhim ahamiyat kasb etishini va jamoada o'z o'rniga ega ekanligini xis qildirib borish; Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatda shakllangan dogmatik qarashlardan voz kechish; Uchinchidan, boshqaruv jaryonida avtokratik usullardan ko'ra demokratik usullarni ko'proq qo'llash; To'rtinchidan, kreativ fikrlaydigan shaxslarning g'oyalarni va qarashlarini hurmat qilish hamda ularni qo'llab quvvatlash lozim. Zero, jamiyatda lokomotiv sifatida har doim liderlar o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bugungi kunda liderlarning aksariyati kreativ fikrlovchi kishilardir.

Borayotgan to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli — harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan.

G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab

katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislarga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiy lashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.

Xo'sh, ta'lim oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin? Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o'zgarishlar kechishi lozim? Tasavvur bilimdan muhim(mi?) Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini suv qilib ichib yuborgan bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn tasavvur bilimdan muhim deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Qoliplardan voz kechamiz. Inson miyasi o'z ishini "yengillashtirish", "qulaylashtirish" uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko'rinishlar ham yetakchi o'rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, "oqim bo'ylab suzish" mustaqil fikrlashdan ko'ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga "so'rov" berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, "yangi yil" deganda to'kin dasturxon, reklamadan tushmaydigan gazli

ichimliklar, archa va hokazolarni tasavvur qilish, bobo obrazida qoʻlida hassa tutgan, koʻzoynakli cholni koʻrish qolip asosida fikrlashning koʻrinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan oʻzgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilgʻamagan jihatlarni payqaydi, yangilik yarata oladi.

Eng ajablanarli jihati, taʼlim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga oʻrgatib qoʻyarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagi taʼlim jarayonidagi bir xillikka koʻnikolmagani, qoliplarga sigʻmaganini koʻrish mumkin. Masalan, Albert Eynshteynning maktabdan haydalishi yoki Dmitriy Mendeleyevning kimyo fanidan “uch” olgani bunga misol boʻladi.

Ken Robinson tomonidan tayyorlangan va YouTube saytida 5 million marta tomosha qilingan “Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?” nomli videolavhada ham shu xususida soʻz boradi. Harf oʻrganish jarayonidayoq bolalarning belgilangan chiziqlar boʻylab yozishi, topshiriqlarni bajarishda namunalar orqali ishlashi, adabiyot darslarida asarni qanday tushunish kerakligi toʻgʻrisida maʼlumotlar berilishi, pedagoglarning yaxshi bajaruvchilarni yaxshi baholashi natijasida bolalar qoliplar doirasida fikrlay boshlaydi. Oqibatda koʻplab yoshlar topshiriq berilsa, namuna bormi, deb soʻraydigan holga kelgan. Bu oldin mavjud boʻlgan modellar asosida ishlashga oʻrganib qolish natijasi. Bunday vaziyatni bartaraf etish uchun oʻquv jarayonida ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashga ahamiyat qaratilishi maqsadga muvofiq. Masalan, oʻquvchilarga “Sizga bir kunda 86400 AQSh dollari berilsa, uni nimalarga sarflagan boʻlardingiz?” kabi noodatiy savollar berilishi mumkin. Bu savol oʻquvchining topqirlik, bilagʻonlik, ijodkorlik, masalaga turli nuqtayi nazardan qaray olish, yashirin jihatlarni ochish kabi xislatlarini rivojlantiradi. Sababi, 86 400 bir kundagi soniyalar miqdorini anglatadi. Savol orqali oʻquvchiga har bir soniya qimmatini anglatiladi, uni behuda sarflamaslik uqtiriladi. Agar oʻquvchi savol tagidagi mohiyatni anglamasa, unda kreativ va evrestik sifatlar past hisoblanadi.

Qolip va stereotiplar asosida fikrlashning bir necha koʻrinishlari bor. Masalan, qutbli tafakkur — hamma narsani ikki shaklda — yaxshi yoki yomon deb qabul qilish, dunyoni oq va qora rangda koʻrishdir. Aslida, yaxshi yoki yomon narsaning oʻzi mavjud emas, uni fikrlarimiz shundayga aylantiradi. Har bir holat va jarayonning ijobiy hamda salbiy jihatlari bor. Bir tomonlama yondashuv, asoslanmagan xulosalar ham stereotiplar asosida fikrlashning koʻrinishlaridir.

Ijodkorlikni yuzaga keltirish uchun stereotiplarning ongosti darajasida ijoddan cheklovchi funksiya, shablonlardagi toʻsiqni anglash, qoliplardan voz kechish zarur. Kumir, brend va modaga ergashish mustaqil fikr kushandasi hisoblanadi. Kiyinish, oʻzini tutish, kasb tanlash, hatto fikrlashdagi taqlid bunyodkorlik faoliyatidan cheklashi mumkin. Shuning uchun nega aynan shu kiyimni tanladim, nima uchun shu ichimlikni xarid qilyapman, deb OAV, reklama orqali inson ongiga majburan singdirilayotgan taʼsirlardan voz kechish mustaqil qaror qabul qilishga, media qurshovidan chiqishga sabab boʻladi.

Tomas Edison “Kreativlik — g‘ayriixtiyoriy jarayon”, deydi. Lekin har kuni ko‘plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g‘ayriixtiyoriy jarayonni ixtiyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi “sehrli tayoqcha” yo‘q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ o‘ylashiga ko‘maklashadigan ko‘plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim. Jorj Bernard Shou hazillashib shunday deydi: “Ko‘pchilik yiliga ikki-uch marta o‘ylaydi. Mening butun dunyoga mashhurligim sababi — haftada bir yoki ikki marta o‘ylaganim”. Demak, xayolga kelgan yangi fikrlarni e‘tiborsiz qoldirmaslik, o‘ylash uchun imkon yaratish muhim.

Ijodkorlik chegarasini belgilang. Muammoli masalaga duch kelgan paytingizda ijodkorlik chegaralarini belgilang. O‘zingizdan “Eng oddiy yechim nimada?” deb so‘rang. Keyin “muammoni hal qilishning aql bovar qilmas varianti” ni tasavvur qiling. Oddiy va hayratlanarli yechim o‘rtasida sizga ijodiy maydon paydo bo‘ldi. Endi yangi g‘oya mavhum emas, uning chegaralari mavjud. Bu ijod jarayonidagi psixologik bosimni yengillashtiradi.

“Olti shlyapa” usuli. Edvard de Bono taklif etgan “Olti rangli shlyapa usuli” da biror mavzu tanlanadi. Navbatma-navbat shapkalar kiyiladi: oq — diqqat bilan, hech qanday emotsiyasiz barcha faktlar tekshiriladi; qora — kamchiliklar aniqlanadi; sariq — mavjud holat tahlil etiladi; yashil — yana yangi bir necha g‘oyalar qo‘shiladi; qizil — emotsional munosabat bildiriladi; ko‘k — ish xotimalanadi. Masalan, ta‘lim tizimiga oid qonunchilikni takomillashtirish mavzusi ko‘rilayotgan bo‘lsa, mavjud qonunchilik o‘rganiladi, kamchilik va bo‘shliqlar aniqlanadi. Qonuniy me‘yorlarning real holat bilan mosligi yoki qarama-qarshiligi o‘rganiladi. Ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi takliflar beriladi, ular amalga oshsa, qanday samara berishi izohlanadi. Taklif loyiha shaklida rasmiylashtiriladi.

Uolt Disneyning kreativ fikrlash nazariyasi. Uolt Disney ko‘ngilochar sohada o‘z sanoatini yaratgan, animatsion multfilmlari bilan butun dunyoga tanilgan shaxs. U dunyoga mashhur personajlarini yaratishda kreativlikning uch fazasi — xayolparast, realist, tanqidchi obrazidan foydalanadi. Ya‘ni, xayolparast rovida hech qanday chegarasiz xayol suradi, fantaziya yaratadi. Bu jarayonda u Baxning “Tokkata, fuga re minar” musiqasini eshitishini aytgan. Xayolida obrazlar yaratilgandan keyin uni reallik bilan uyg‘unlashtiradi. Personaj qanday harakatlanadi, qanday gapiradi — barchasini konstruktor sifatida jonlantiradi, reallashtiradi. Shundan keyin xayolparast va realist ishini tanqidchi ko‘rib chiqadi. Tanqidchi “filtr” vazifasini bajaradi. Uolt Disneyning yutug‘i xayolparast, realist, tanqidchini bitta shaxsda jamlay olganidir. Odatiy fikrlovchilarda ularning bittasi ustuvorlik qiladi.

Tasodiflarga befarq bo‘lmang. Juda ko‘plab ixtirolar favqulodda va tasodifiy holatlarda amalga oshirilgan. Ya‘ni, taqdirning o‘zi insonga nozik ishoralar beradi. Bu Isaak Nyutonning boshiga tushgan olma, antibiotikni kashf etgan olim Aleksandr

Flemingning yuvilmay qolib, mog'orlagan laboratoriya idishlari ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Bir-biriga bog'liq bo'lmagan narsalarni bog'lash. Mobil telefon va kompyuter imkoniyatlarini birlashtirish orqali planshet, yuk mashinasiga antenna o'rnatilib ko'chma stansiya, qayiqqa osib qo'yilgan mato tufayli yelkanli kemalar paydo bo'lgan. Shotlandiyalik shifokor J.Danlopning o'g'li tosh yo'ldan velosipedda yurib qiynalar edi. Danlop bog'ini shlang bilan sug'ora turib, uning yengil prujinasimon sakrashiga e'tibor berdi. Natijada birinchi bo'lib shinani kashf etdi.

Shuningdek, kreativlikning mikro va makrosignallarini anglash, uning inson fiziologiyasi bilan bog'liq jihatlari, ya'ni qanday holatlarda inson xayoliga yangi fikrlar kelishini bilish ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, kreativ fikrlash jamiyat hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan, shaxsning tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanib, shaxsda, ayniqsa, yoshlarda ushbu ko'nikmani shakllantirish kelgusida mamlakat taraqqiyotining muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF- 4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

2. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik-ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro'yobi yo'lida qudrat manbai. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Yangi O'zbekiston, 2020-yil, 1-sentyabr.

4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: «O'zbekiston», 2005, 34-bet.

5. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014.

6. Turdiyeva M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. - 38-42-b

7. G.Gaffarova, F.Qosimov. Ta'limdagi transformatsiyalar Chirchiq davlat pedagogika universiteti faoliyatida. Scientific progress, 3 (7) 117-122, 2022.

8. Po'Latov, Ro'Zimurod Farhod O'G'Li. "GLOBAL IJTIMOYIY-TARIXIY O'ZGARISHLARNI O'RGANISHNING METODOLOGIK JIHATLARI" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 3, no. 6, 2023, pp. 1126-1132.

9. Po'latov, Ro'zimurod. "YOSHLAR SHAXSIY IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRSHNING SAMARALI STRATEGIYALARI." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 2.20 (2023): 57-61.

10. Пулатов, Рузимурод Фарходович. "ПОДДЕРЖИВАЮЩИЕ ФАКТОРЫ И КРИТЕРИИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ." *Gospodarka i Innowacje*. 36 (2023): 504-507.

11. Farhod o'g'li, Ro'zimurod. "TARIX VA TARBIYA DARSLARINING INNOVATSION USULDAGI O'QITILISH TIZIMI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.16 (2023): 630-634.

12. Po'Latov, Ro'Zimurod Farhod O. "YOSHLARDA KREATIV FIKRLASHNING YORDAMCHI OMILLARI VA MEZONLARI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.5 (2023): 1273-1277.

13. Farhod o'g'li, Ro'zimurod. "TA'LIM MUASSASSALARIDA HUQUQIY TA'LIM ZARURIYATI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.2 (2023): 323-327.

14. Po'latov, R. F. (2023). Yosh avlodda ma'naviy axloqiy sifatlarni rivojlantirish. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(1), 316-320.

15. Makhmudova, G., G. G'affarova, and G. Jalalova. "O'zbekistonda islohatlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi. 176 b." (2020).

16. G'afforova, G. (2023). Raqamli jamiyatda yoshlar ongining o'zgarishi. *ISJ nazariy va amaliy fanlar*, 2 (118), 1-5.

17. Пулатов, Рузимурод Фарход Угли. "НЕОБХОДИМОСТЬ ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 3, no. 4-2, 2023, pp. 772-776.